

bo'layotgan bunday fojialarga befarq bo'lsak bir kun kelib sun'iy intellekt tomonidan taxmin qilinga

voqeyliklarni boshimizdan kechiramiz. Bugungi kunda mintaqamizda asosan ikki muammo, chuchuk suv zaxiralarining kamayib borishi va atmosfera havosining sezirarli darajada ifloslanish. Suv zaxiralarimizni kamayishini oldini va ularni hajmini oshirish uchun bir qancha takliflar taqdim etaman.

1) Sug'oriladigan yerlarni suv tejoychi texnologiyalar bilan ta'minlash va suv kanalari havzalarini sement orqali ishlov berish orqali suv yo'qotishlarini oldini olish.

2) Suv bilan taminlash qiyin bo'lgan va suv katta yo'qotishlar bilan yetib boradigan hamda yer unumdorligi past bo'lgan va sho'rlashgan yer maydonlarini sug'orish tizimidan chiqarish.

3) Sug'orish tizimidan chiqarilgan yer maydonlarini yashil energetika olinadigan maydonlarga aylantirish. Ya'niy quyosh panelarining katta-katta agrigatlarini o'rnatish orqali aholimizning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini 80% ni yashil energetika orqali tam'inlash imkonini beradi. Bu yo'l orqali atmosferaga chiqarilayotgan IES larning gaz tashlamalarini sezirarli darajada kamaytiradi.

Bu takliflar orqali kelajakda ko'zlagan maqsadlarimiz sari olg'a intilaveramiz va xalqimizning yashash turmish tarzi yaxshilanib boradi. Mamlakatimiz rahbari ham bu masalalarda BMT ning iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasidagi nutqida ham O'zbekistonda 2030-yilga borib qiymati 25 GVt qayta tiklanadiga energiya quvvatlari barpo etilishi haqida takidlab o'tdilar. Hozirgi kundagi axolining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji 14,4 GVt ni tashkil qilmoqda. Taqqoslab ko'rsak 2030-yilga borib yashil energiyaning ulushi mamlakatimiz aholisi ehtiyojini 85% ga yaqinini ta'minaydi. Bu esa kelajakda turli xil ekologik muamolarni hal qilishning dastlabki poydevori bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyevning BMT iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasidagi nutqidan 2023-yil 2-dekabr.
2. Mirzacho'lning buguni, ertasi "O'zbekiston KP Markaziy Komitetining birlashgan nashriyoti". Toshkent-1964.:B-11-12-13.

### **SUV RESURSLARI MUAMMOLARI**

*Mo'minova Ra'noxon Nabijanovna, Yuldashbaeva Oysha Dilmurodjon qizi*  
*[Muminovaranoxon@kspi.uz](mailto:Muminovaranoxon@kspi.uz)*  
*Qo'qon Davlat pedagogika instituti*

Suv ajralmas va shu bilan birga ijtimoiy, tabiiy va iqtisodiy farovonlikni belgilaydigan noyob ne'matdir. Shuning uchun, agar insoniyat demografik va iqlim sharoitida barqaror yashash va omon qolishni istasa, uni tabiiy-iqtisodiy resurslarning bir qismi sifatida emas, balki inson hayoti sifatini ta'minlaydigan ham tabiiy sub'ekt sifatida ko'rib chiqish kerak. Suv tanqisligi nafaqat davlat iqtisodiyotiga, balki aholining turmush darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan dolzarb muammo hisoblanadi. Insonlar turmush darajasining yomonlashishi, bir qator kasalliklarni rivojlantiradi, yetishmovchilik kundalik hayotda xavfli manbalardan suv ishlatishga majbur qiladi. Suv resurslarini boshqarish iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirishi kerak [1].

Iqlim o'zgarishi natijasida mutaxassislarning fikriga ko'ra, Shimoliy suv resurslari Markaziy Osiyoning tekislik qismida 2030 yilgacha 6% dan 10% gacha, 2050 yilgacha esa 4-8% kamayishi mumkin. Tog'li hududlarda oqim 2030 yilgacha o'zgarib, 2050 yilga esa oqim 7-17% gacha kamayishi mumkin [2]. Tog' muzligining deyarli to'liq degradatsiyasi natijasida, tog'li hududlarning suv resurslari 10-12% foizga kamayadi [3].

Ammo davlat chetda qolmaydi, balki ushbu masalalarga munosib e'tibor beradi. So'nggi o'n yil ichida mamlakat suv va sanitariya xizmatlarini modernizatsiya qilishga sarmoya kiritdi. Shuningdek, mamlakatimizda ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi to'g'risida Nizom mavjud bo'lib, prezident farmoniga binoan qishloq va suv xo'jaligida

investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi tashkil etildi. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekistonda suv xo'jaligi sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv munosabatlarini tartibga solish sohasidagi milliy qonun hujjatlarini tez o'zgarib borayotgan tinchlik va yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish bo'yicha ishlar qilinmoqda.

2019-yil 9-oktabrda Prezidentning "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yangi Farmoni chiqdi. Ushbu hujjat suv xo'jaligi vazirligi rahbarligidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Ular orasida 2023-2030 yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasini o'z vaqtida va sifatli ishlab chiqish; bosqichma-bosqich iste'molchilar tomonidan suv yetkazib berish bo'yicha foydalanish xarajatlarining bir qismini qoplash mexanizmlarini joriy etish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga faol yordam ko'rsatish, xususiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga zamonaviy irrigatsiya tizimlari ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqalar orqali suvni tejaydigan texnologiyalar yordamida sug'oriladigan yerlarning ulushini umumiy maydonning kamida o'n foiziga yetkazish.

Bu suv resurslarini boshqarish sohasida bozor mexanizmlarini joriy etish, suv sektorida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga operatsion xarajatlarning kamida 15 foizini qisqartirish;

suv xo'jaligini innovatsion rivojlantirish, ilmiy ishlanmalar natijalarini faol joriy etish, suv resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va obyektlardan foydalanish;

sug'orish tizimlari samaradorligini yiliga kamida bir foizga oshirish zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Qishloq xo'jaligi va suv sektoridagi keng ko'lamlı islohotlar natijasida suvni boshqarish vakolatlarining bir qismi jamoat tashkilotlariga (shuning uchun iste'molchilarning o'ziga) beriladi. Bu rivojlangan mamlakatlar va yetakchi uyushmalar tajribasiga muvofiq maqsadga muvofiqdir.

Davlat darajasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda, har bir suvdan foydalanuvchi faol ravishda harakat qilsa, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga o'z hissasini qo'shsa, muvaffaqiyatga erishishimiz mumkinligini anglash vaqti keldi [1].

Shunday qilib, mamlakatimizda aholining xabardorligini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda, chunki faqat muammolarning kelib chiqishini to'plash va o'rganish orqali siz vakolatli yechimni topishingiz mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Salohiddinov A., Sokolov V. Suv resurslari muammolari. Sharq hakikati. 64-son 2020 y.
2. Yasinskiy V.A. va boshqalar. mintaqaviy transchegaraviy daryolarning suv resurslari Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida. Olmaota, 2010 y.
3. Salimov T. O. Tojikiston-suv manbalari mamlakati. Dushanbe, 2013 y.

#### **YER, SUV VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING MUAMMO VA YECHIMLARI**

*Nosirov N.V., Ismoilova Sh.S., Qo'rg'onboyev S.N.*

*[nosirov79@mail.ru](mailto:nosirov79@mail.ru)*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

**Kirish.** Insoniyat paydo bo'lishi bilan insonning kundalik iste'molidagi noz-u ne'matlarning yaratilishi, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasining shakllanishi, inson hayotining davomiyligini ta'minlashda yer qobig'i hisoblangan litosfera qatlamining alohida o'rni va ahamiyati mavjud. Shu jihatdan yer va yer resurslarini muhofaza qilish hamda uni ko'z qorachig'iday asrash barcha davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning quyi chegarasi taxminan 40 km dan 100 km gacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi. Materiklar hajmi Yu.M.Shatal'skiy hisob-kitobiga ko'ra okeanlar hajmidan 12,7 marta kichik. Respublikamizning umumiy maydoni 45 mln. ga bo'lib, shundan 29 mln. ga cho'l-dashtlar, 2,2 mln. ga yaylovlar, 6 mln. ga nuragan maydonlar, 4,2 mln. ga sug'oriladigan ekin maydonlari,